

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANK SERVISINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tursunov Faridun Mustafoyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Bank ishi” kafedrası assistenti

tursunovfaridun4330@gmail.com

Igamberdiyev Sahobiddin Xatam o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Bank ishi” kafedrası assistenti

sahobiddinigamberdiyev0101@mail.ru

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi bank servisini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Banklar innovatsion mahsulotlarni taklif qilib, o‘z mijozlariga individual yondashuvni ta‘minlash muhimdir. Bu borada mijozga yo‘naltirilgan yondashuv, xizmat ko‘rsatish jarayonini individualizatsiya va segmentalash orqali kuchaytirishi zarur. Bularning barchasi O‘zbekiston bank tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank servisi hamda uning ahamiyatini o‘rganib chiqildi, tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarishda bank servisining ahamiyati va bank xizmatlariga doir me‘yorlarni nazorat qilish hamda bank va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari ta‘sir etuvchi o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlar va omillarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: bank servisi, transformatsiya, bank xizmatlari, lizing, faktoring, hisob-kitob operatsiyalari, iste‘mol portfeli, ishonch xizmatlari, bank faoliyatini diversifikatsiya qilish, fond va kredit funktsiyalari.

WAYS TO DEVELOP BANKING SERVICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The increasing deepening of economic reforms in the Republic of Uzbekistan leads to the need to effectively manage the banking service and constantly improve it. It is important for banks to provide an individual approach to their customers by offering innovative products. A customer-oriented approach in this regard is necessary to enhance the service process through individualization and segmenting. All this will serve to further strengthen the banking system of Uzbekistan. In this article, the bank service and its importance were studied in the commercial banks of the Republic of Uzbekistan, it is important to determine the importance of bank service in the management of assets and liabilities of commercial banks and the specific regional characteristics and factors affecting the prospects for the development of banking and financial services.

Key words: banking service, transformation, banking services, leasing, factoring, settlement operations, consumer portfolio, trust services, diversification of banking activities, fund and credit functions.

Kirish. Raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida, banklar nafaqat innovatsion yechimlar taklif qilishlari, balki xavfsizlikni ta‘minlashda ham yangi standartlarni belgilashlari zarur. Kiberxavfsizlikka e‘tiborni kuchaytirish, mijozlar ma‘lumotlarini himoya qilish va elektron to‘lov tizimlarining ishonchligini oshirish bank xizmati foydalanuvchilari uchun asosiy talabga aylanmoqda. Zamonaviy axborot jamiyatidagi bank xizmatlari iqtisodiy sektorning muhim qismini egallay boshladi, uni o‘rganish bir qator nazariy va amaliy bilim usullarisiz mumkin emas,

ular orasida induksiya, mantiqiy tahlil, deduksiya, iqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy qarorlarni optimallashtirish metodologiyasi va boshqa ko'plab usullar mavjud. Ushbu maqolani ko'rib chiqishning maqsadi bank sektorining turlarini, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida rivojlanish istiqbollari aniqlashdir. Mualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda moliyaviy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning iqtisodiy mazmuni va funktsiyalari, shuningdek ularning hozirgi rivojlanishi ko'rib chiqildi. Shunga asoslanib, O'zbekiston Respublikasida bank madaniyati darajasini oshirish uchun u Evropaning moliyaviy rivojlangan mamlakatlari tadqiqotlari va tajribasiga ko'proq e'tibor qaratishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uni oqilona boshqarishga erishish iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar singari, O'zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda[2]. Bank xizmati-bu moliyaviy tashkilotlar tomonidan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha bank operatsiyalarini oqilona va maqbul bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus xizmat turi [3]. Bank xizmatlari bir qator Evropa mamlakatlari iqtisodiyotning bozor turiga o'tgandan keyingina keng tarqaldi. Bank xizmatlari to'plami mijozlar talabini qondirish uchun zarur bo'lgan iste'mol portfelini tashkil etadi[4].

Taniqli rus olimi Yu.V Golovenning fikricha hozirgi vaqtda bank xizmatlarining keng assortimenti shakllandi, ular o'ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- 1) mahsulot xaridorlarining ehtiyojlarini qondirish usuli bo'yicha:
 - iste'molchilarning xohish-istaklarini bevosita qondiradigan to'g'ridan-to'g'ri xizmatlar;
 - to'g'ridan-to'g'ri xizmatlarni olish xarajatlarini engillashtirish, qulaylikni yaxshilash yoki kamaytirishga yordam beradigan bilvosita xizmatlar;
- 2) mijozlar doirasiga yo'naltirilgan:
 - yagona (muayyan turdagi shaxslar uchun mo'ljallangan);
 - ommaviy (bank mahsulotlaridan foydalanuvchilar va xaridorlarning keng doirasiga kirishni ta'minlash);
- 3) cheklangan bank xizmatlari uchun:
 - cheklangan (cheklangan va ixtisoslashgan shaxslar doirasi uchun mo'ljallangan);
 - cheklanmagan;
- 4) bank sohasida paydo bo'lish darajasi bo'yicha:
 - umumiy moliya bozorida yangi;
 - birinchi marta mahalliy sohada paydo bo'ldi;
- 5) iqtisodiy tarkib bo'yicha: operatsion, moliyaviy, investitsiya, maslahat [5].

Natijalar. O'zbekiston Respublikasida bank servislarini rivojlantirish yo'llari mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslardir. Avvalo, bank tizimini raqamlashtirish orqali mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni oshirish zarur. Online bank xizmatlari, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlari orqali keng jamoatchilikka xizmatlar taqdim etish, bankning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, mikromoliya institutlarini rivojlantirish O'zbekiston bank tizimining muhim komponentidir. Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, ularning rivojlanishini ta'minlash orqali mamlakat

iqtisodiyotining ildizlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa xususiyl sektorida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining farovonligini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, bank xodimlarining malakasini oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida ta'lim dasturlarini joriy etish zarur. O'zbekiston banklarida zamonaviy menejment va xizmat ko'rsatish innovatsiyalarini qo'llash orqali mijozlarning talablari va ehtiyojlarini qondirishning yangicha yo'llarini izlash lozim. Bu yondashuvlar mamlakat bank tizimini yanada raqobatbardosh va barqaror qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash departamenti negizida Markaziy bankning Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etildi[1].

Xizmatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- bank xizmatlari istemolchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash;
- moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirish;
- aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'lib hisoblanadi.

Markaziy bank bank xizmatlarining sifatini yaxshilash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan rejali tarzda ishlarni amalga oshirib boradi. Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish va kuchaytirish maqsadida Jamoat qabulxonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur Jamoat qabulxonalariga iste'molchilar bank xizmatlari sohasidagi amaldagi qonunchilik normalari yuzasidan maslahat va tushuntirishlar olish maqsadida murojaat etishlari mumkin. Shuningdek, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish maqsadida, bank xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya etish va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash yuzasidan moliya-kredit tizimida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, bank xizmatlarini ko'rsatish madaniyatini oshirish, mijozlarning talablarini qondirish imkonini beruvchi innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatish ko'zda tutilgan.

Endi esa, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqsak(1-jadval).

1-

jadval

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida (1-noyabr 2023 yil holati) MA'LUMOT

Ko'rsatkichlar nomi	01.11.2022			01.11.2023			Nomin al o'sish, foizda	Haqiqiy o'sishi, foizda
	jami	shunda, xorijiy valyutada	ulush, foizda	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulusi, foizda		
Bank aktivlari, jami	538 766	263 288	49%	621 930	280 661	45%	15%	11%
Kredit qo'yilmalari, jami	375 297	179 389	48%	460 491	206 728	45%	23%	18%

Jalb qilingan jami depozitlar	206 519	86 050	42%	220 027	69 429	32%	7%	4%
Jami kapital	77 609	358	0,5%	90 563	391	0,4%	17%	17%

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekisto Rrespublikasi bank tizimida bank aktivlari 11%ga, kredit qo'yilmalari 18%ga, jalb qilingan jami depozitlar 4%ga va jami kapital esa 17% ga o'sgan.

Muhokama. Milliy banklarimizda korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo'lida korporativ mijozlarni jalb qilishga va ular bilan hamkorlikni rivojlantirishga javobgar bo'linmalar va bitimlarni strukturalash va bank xizmatlari va mahsulotlarini sotish, bank bo'linmalarining birgalikdagi harakatlari tizimini ishlab chiqish, turli tabaqadagi mijozlar uchun xizmatlar paketini shakllantirish, ya'ni "moliyaviy xizmatlar"ni shakllantirish bilan shug'ullanuvchi, bo'linmalar tarmog'ini tuzish bo'yicha bankni boshqarish strukturasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir[9].

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsadmoqdaki, yangi bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi bosqichlardan foydalanish kerak:

1. Yangi g'oyalarni muammoni ommaviy tahlil qilish, mijozlar bilan shaxsiy muloqotlar va pochta korrespondentsiyasi sharhi yordamida ishlab chiqish.

2. Yangi xizmatning mohiyati va uning natijaviy maqsadini formulirovkasi, yangi xizmat maqsadining bankning umumiy maqsadlari o'rtasidagi munosabati, bu xizmat kimlarni jalb qila olishi tahlili.

3. Yangi xizmatlarni taklif qilish mumkin bo'lgan bozor segmentini va bank mijozlarini moliyaviy talablaridan foydalanish.

4. Ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash uchun yangi xizmatlarga talab yetarliligini aniqlash va bu xizmatlardan xohlagan bittasini tarqatish, shuningdek, uning bank umumiy daromadidagi hissasini bashorat qilish.

5. Yangi xizmatlar bozorini mavjud xizmatlarga va bank personaliga mos kelishi tahlil etish.

Xulosa. Xizmatlar mijozlarning ko'proq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tamoyiliga asoslanadi, xizmatlarning doimiy ravishda mobilligini ta'minlaydi va mijozlarni jalb etish strategiyasi hisoblanadi. Bundan tashqari, banklarni yanada rivojlantirishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy ta'lim dasturlarini taqdim etish, aholining bank xizmatlari va moliyaviy bozorlar bilan tanishishini kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, mijozlarning o'z pul mablag'larini samarali boshqarishiga yordam beradi va riskiyqarashni kamaytiradi. O'zbekistonning bank tizimi o'z mijozlariga moliyaviy bilimlarni oshirishda yirik platforma bo'lishi kerak.

Banklar tomonidan mijozlarga erkinliklar yaratish va ularni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'tishga asoslanishi zarur. Xizmat ko'rsatishni elektronlashtirish, ularni unifikatsiyalash va mobilligini oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Ma'lumki jahonning aksariyat rivojlangan banklari mijozlarga uzluksiz xizmat ko'rsatishga harakat qiladilar, bunday xizmat ko'rsatishni "Doyche bank" (Germaniya), "ABN AMRO Bank2 (Gollandiya), "Sosete Jeneral" (Frantsiya), "Citybank" (AQSH) banklarida ko'rish mumkin. Bu banklarda bank xizmatlari strategiyasi asosan past tariflarda yangi mijozlar, korrespondent-banklarni jalb etish, zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlariga asoslanadi va mijozlarga xizmat ko'rsatish kuniga 24 soat davomida haftasiga 7 kun olib boriladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
2. Базельский комитет по банковскому надзору. Международная Конвергенция Оценка Капитала и Стандарты Капитала. Базель, 2002,-425 с.
3. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: монография. — М.: Юрайт, 2017. — 608 с.
4. Балакина Р.Т. Влияние инноваций на развитие банковского бизнеса [Текст] / Р.Т. Балакина // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. — 2017. — № 1. — С. 286–292.
5. Головин Ю.В. Банки и банковские услуги в России: вопросы теории и практики: учеб. пособие / Ю.В. Головин. — М.: Финансы и статистика, 2017. — С. 59.
6. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.
7. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2017. 768 b.
8. <https://cbu.uz/uz/statistics/financing/72798/-internet> resurs.
9. Tursunov, F. M., & Hamdamova, Z. O. qizi . (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANK XIZMATLARI VA ULARNING RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(34), 232–238. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10412863>.